

Buxoro Xattotlik Maktabi

*Odinayev Mahmud Ahmadovich*¹

Anatatsiya: Ushbu maqolada xattotlik, yurtimizda bu sohaning o'rtasrlardan beri tutgan o'rni va uni rivojiga katta hissa qo'shgan shaxslar haqida, Buxoro xattotlik maktabi va uning faolyati haqida so'z brogan.

Kalit so'zlar: Buxorolik olim, Shayboniyxonlar, Ashtarxoniylar, 16-asr, "Bo'ston", Jomiyyaning "Tuhfat ulahror", muhaqqaq, g'ubor xati, «Ixlos» surasi, yetti xat, «nasx» va «ta'liq», Shohnoma, „Narimonnoma“, „Bayonnoma“, „Faramuznoma“.

Islom davlatlarida arab yozuvining keng tarqalishi tufayli Xattotlik ham rivojlanishi jadallashdi. Sharqda, jumladan, O'rtasiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish bilan xattotlar shug'ullangan. Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida guruh bo'lib ishlagan.

Yurtimizdagi qay bir tarixiy yodgorlikni olib qaramang, unda xattotlik san'ati namunalarini uchratish mumkin — deydi buxorolik olim. Chindan ham aniq fanlarning o'zgarish qonunlari asosida mukammal qilib barpo etilgan madrasayu masjidlar, timu karvonsaroylar ajdodlarimizning yuksak aql – zakovati, salohiyati mahsulidir. Shu noyob osori atiqalarning tashqi ko'rinishini xattotlik san'ati asosida bezash, ularga hikmatli so'zlarni bitish mo'jizada mo'jiza yaratilgani bilan barobar.

Binobarin, barmoq bilan sanarli darajada oz qolgan xattotlarni qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yoshlarni shu sohaga yo'naltirish orqali unutilayozgan xattotlik maktablarini qayta tiklash mumkin. Bunda yosh xattotlar tanlovlarini, Buxoro, Samarqand, Xiva singari qadimiy shaharlarimizda tashkil etilayotgan xalqaro festivallarda xattotlik san'ati bo'yicha mahorat saboqlarini o'tkazish foydadan xoli emas.

Buxoro miniatyura maktabi — O'zbekiston miniatyura san'atidagi o'ziga xos yo'nalish. O'rtasrlar Buxoroda shakllangan, Buxoro miniatyura maktabi m.ning rivojlanish davri Buxoroda Shayboniyxonlar, Ashtarxoniylar hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Hirot miniatyura maktabi ta'sirida rivojlangan Buxoro miniatyura maktabi dastlab Buxoroga kelgan Hirot miniatyura maktabi vakillarining ijodi bilan bog'liq bo'lgan va mahalliy badiiy an'analar ta'sirida shakllanayotgan mustaqil uslubni aks ettirgan oqimlar ko'rinishida bo'lib 1550-yillar o'rtalaridan mustaqil rivojlangan.

Umumlashtirish, shaklning ixchamligi, kiyim va bezaklarning aniq hamda yirik ishlanishi, bo'shliqning bir tekis tuzilishi, me'moriy tasvir va zaminning soddalashtirilishi kabi xususiyatlarga ega bo'lgan. Umumiy ranglar yorqin, tiniq (to'q sariq va qora ranglar ustunligi seziladi), rasmlar uchun yaratuvchanlik, tantanavorlik ruhi xos bo'lgan. Rasmlarda qabul sahnalari, tabiat og'ushidagi uchrashuvlar, maishiy manzaralar, saroy hayotidan olingan axloqiy lavhalar va boshqa mavzular keng o'rin olgan; ko'chmanchi hayot ko'rinishlari, mahalliy etnik turlar ham uchraydi.

16-asr oxiridan tasviriy san'atda mavjud an'anaviy, rasmiy dabdabali yo'nalish bilan bir qatorda demokratik mavzular shakllandi va mustahkamlandi, shahar hayotidan olingan janrlar lavhalar, hunarmandlik mavzularining soni ko'paydi. Buxoro miniatyura maktabi m.ning yirik vakillari: Mahmud Muzahhib, Shayxzoda, Abdulla Musavvir, Muhammad Sharif, Muhammad Muqim, Avaz Muhammad, Muhammadamin, Farhod, Mulla Behzod, Xo'ja Gadoy va boshqa 16-asr oxiri va 17-asr boshlarida Movarounnahrning qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarining kuchayishi tufayli Buxoro miniatyura maktabi m. vakillari asarlarida Hindiston va Eron tasviriy san'atining ta'siri o'z ifodasini topgan. Bu maktab vakillari tomonidan Sa'diyning "Bo'ston", Jomiyyaning "Tuhfat ulahror" 16-asrning 70-yillari, Dehlaviynint "Tarixi Xizraxon" (1579), Nizomiyning "Hamsa" (1648, hammasi SanktPeterburgdagi SaltikovShchedrin nomidagi kutubxonada), Firdavsiyning "Shohnoma" (1664, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida) asarlari, shuningdek tarixiy, diniy asarlar badiiy bezatilgan. Kitoblarni bu tarzda bezash keyingi davrlarda ham davom etdi, mas, Ahmad Donish, Abdulxoliq Maxdum va boshqa 20-asr 20-yillarida Buxoro miniatyura maktabi an'analari usta Nabi Hafizov va Pochayev ijodida davom ettirildi.

Xattotlik san'atiga bag'ishlangan ko'plab risolalar 10 xil asosiy xat uslublari.

Muhaqqaq xati – bu xatning ko'proq qismi tekis, qolgan bo'laklari dumaloq shaklda yoziladi. Bu xat hijoziy va ko'fiy xatiga ko'proq o'xshaydi. Shu bois Ibn Muqla bu xatni «muhaqqaq» deb nomlab, uni boshqa xatlardan birinchi deb atagan. Suls – bir narsaning uchdan bir hissasi yoki uchinchisi demakdir. «Suls xati» deyilishiga sabab shuki, bunda qalamning uchinchisi ishlatiladi yoki qalamning uchdan bir hissasi ko'proq ishga solinadi. Ibn Bavvob birinchi bo'lib nuqta o'lchovlariga tayangan holda, suls xati harflari shaklining grafik asoslarini ixtiro etgan. Rayhoni xati suls xatidan kelib chiqqan bo'lib, bunday nom ushbu xatning yozilish shakli rayhon barglariga o'xshashligi uchun berilgan.

¹ Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2 kurs magistranti

Nasx xatining ixtirochisi mashhur san'atkor xattot Ibn Muqladir. Bu xat yuzaga chiqqandan keyin boshqa xatlar mansux bo'lib ishlatilmay qoldi. Ilmiy adabiyot va qo'lyozmalarda ko'p uchraydigan «g'ubor xati» nasx xatining mayda qalamda yozilishidir. Raqamlarga o'xshash mayda shaklda yozilgani uchun shunday nom berilgan.

Mashhur xattotlardan biri Said Qosim bitta guruch donasiga g'ubor xatida «Ixlos» surasini yozgan va shu xatning ixtirochisiga aylangan. Tavqi' xatining yarmi tekis, yarmi yumaloq chiziqdan tashkil topgan. Hijoziy xatiga o'xshashligi bor. O'tmishda qozilar va hokimlar hujjatlarni aynan tavqi' xati bilan imzolagan bo'lib, idora va mahkamalarda farmonlarga, maktub va qo'lyozmalarga tavqi' uslubida imzo qo'yilgan. Riqo' xatining xususiyatlaridan biri, unda aksariyat harflar bir-biriga qurama qilib yoziladi. Riqa' «ruq'a» so'zining ko'pligi bo'lib, «qog'oz parchasi» degan ma'noni anglatadi. Ta'liq xati aslida, riqo'dir. Uning har xil shakllarga solib yozilishidan ta'liq xati yuzaga kelgan. Xoja Tojiddin Sulaymon va Abul Oliy ismli xattotlar bu xatga asos solganlar.

Xattotlar tilida «Al-xutut as-sab'a» ya'ni «yetti xat» deb yuritiladi. Mahoratli xattotlar ushbu xatlarning barchasini bilishi lozim. Nasta'liq «nasx» va «ta'liq» atamalarining birikuvidan tashkil topgan. Mir Ali Hiraviy hamda Mir Ali Tabriziylar ana shu ikki xat asosida nasta'liq xatini yaratishgan. Buni forsiy xat ham deyishadi. Diyorimizda ko'plab kitoblar aynan shu xatda yozilgan.

Xattotlar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ruboiy va to'rtliklarni ruboiy, g'azal va nasihatimiz she'rlarni jaliy qalamda abri bahor qog'oziga turfarang gullar, tilla suvli naqshlar bilan bezatilib yozilgan. Muraqqa (albom) holida saqlangan yoki shishali chorcho'p (ramka)larda mehminxona devorlariga ilib qo'yilgan. Bir necha yuz tilla tanga narxida baholangan.

Xattotlik san'ati yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, faqatgina kitobat bilan chegaralanmagan, ajdodlarimiz me'morchilik va xalq amaliy san'atning barcha jabhalarida husnixatdan foydalanishgan. Inshootlarning ichki (interyer) va tashqi (eksteryer) qiyofasini hikmatomuz, muqaddas so'z yoxud Qur'on sura va oyatlari bilan bezatishgan. Ushbu san'atga hukumatimiz tomonidan e'tibor yuksak darajada bo'lmoqda.

Taniqli, qilqalam xattot Habibullo Solih tomonidan yangi husnixat uslubining yaratilishi e'tiborga molik. Bu xatga «Xatti Zuxruf Habibiy» yoki «Xatti Habibiy» deb nom berilgan. Ushbu naqshin bezak xatning o'zgaralaridan farqi unda fusunkor naqshlar, harflar, nuqtalarning qo'shiluvidan bezakli tasvir hosil qilingan.

Albatta, xattotlar qalam, qog'oz va siyoh tabiatini his qilib arabiy xatga yangiliklar kiritish ehtiyoji ularga ilhombaxsh kuch baxsh etgan.

Xalqimizda «Qozonchida ixtiyor qaydan quloq chiqazsa» – degan maqol bor. Bu fikr xattotlarga qay darajada daxldor? Qozon yasayotgan degrez unga to'rtta quloq qo'yishi tabiiy. Qaysi tomondan chiqazish qo'yish uning ixtiyorida. Lekin u quloqlar orasidagi masofa va ularning katta-kichikligiga albatta, rioya qiladi. Shunga monand holda, xattotlar ham munfasil va muttasil harfning asl shaklini buzmaganda qiya yoki cho'ziq shaklda ifoda etishi mumkin. Har bir yozuvga xos bo'lgan yozuv qoidalari, bog'lanish usullari saqlanishi shart.

Xat ilmining yirik ustozlari kotiblarga qarata «Sen harflarni emas, ular seni tanlaydilar», – deyisharkan. Demak, xattotning xatida uning o'zligi, didi, tabiati va tiynati aks etadi.

Xat hadisi sharifda «nisbul-ilm», ya'ni yarim ilm deyiladi. Buni bilish va amalda qo'llay olish uchun ijrochi emas, balki ijodkor xattot bo'lish zarur. Odatda, xattotlar ikki xil bo'ladi, biri musavvir-xattot, ikkinchisi esa xattot-musavvir. Birinchisida muayyan suratni chizib yoki tayyorini olgan holda, uning ichiga ma'lum bir muqaddas bitikni joylashtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Ikkinchisida esa harflar va harf birikmalarining o'zining tabiiy holatidan kelib chiqish asnosida «zo'rlamasdan» tasvir yaratish maqsad qilinadi. Bunisi esa katta mahorat va noziktab'likni talab etadi. Kabutar shaklidagi «Assalomu alaykum», gul shaklidagi «Bismillohir – rahmonir – rahim», ko'za suvratidagi «Muhammad», qo'shdarvozali imorat shaklidagi shahodat kalimasini bitishlar shunga misol bo'la oladi.

Innovator xattotlarning innovatsion uslublarini yanada takomillashtirishning muhim mezonidir. Xo'sh, qanday Xat turlari bor, Xattotlar maktablarida amal qilgan xat yozishni besh bosqichi qaysilar? Shu haqda to'xtalganimizdan so'nggina xattotlardagi innovatsion uslublarning shakllanish omillari borasida jo'yali fikr aytish mumkin.

Bular mufradot – birlik harflar bilan ishlash; so'ngra murakkabot – harfni harfga qo'shib yozish, undan keyin qit'aot – chorbayt, masnaviy, ruboiylarni yirik jaliy qalamda yozish, keyingi bosqich munshaot – xafiy qalamda xat yozish, insho yozish va so'nggi bosqich kitobat – xafiy va jaliy qalamlarda kitoblar ko'chirish. Harflar nuqtalar bilan o'lchangan. O'tmishda xattotlar qo'lyozmani husnixat bilan ko'chirishda ikki xil xatni egallash zarur bo'lgan. Biri oddiy mayda xafiy xat, ikkinchisi yirik jaliy xat.

Xattot matni uch tur xatda, ya'ni oyat, hadislarni «nasx», oddiy matnlarni «nasta'liq», bob va sarlavhalarni «suls» xati bilan ko'chirilishi shart bo'lgan.

28 harfdan tarkib topgan arab alifbosining dastlabki shakli Nasxi Hijoziy qadimdir. Mushafi Usmon ham mana shu xatda bitilgan. Keyinchalik, shu asosda ko'plab nusxalarda ko'chirilgan. Yaratilgan barcha uslublarning asosini 7 xildagi xat turi ifoda etgan. Shuning uchun ham ular haqida muxtasar ma'lumot berish maqsadga muvofiq.

Tasavvur qiling. Uyingizga mehmon tashrif buyurishini bilganingizdan keyin dasturxonni imkoniyatingizdan kelib chiqib, qurbingiz yetganicha va didingizga muvofiq holda bezash taraddudiga tushasiz. Har xil pishiriqlar, shirinlik va taomlar bilan xursand qilish istagida bo'lasiz. Toki, mehmon sizdan rozi va mamnun bo'lsin uchun.

Xattot ham ana shu yo'ldan boradi. Qog'oz yuziga xatnii chiroyli tarzda, husnixat bilan tushirish taraddudida bo'ladi. Harf va so'zlarni qog'ozga mohirona joylashtirish orqali kalomni, matnii ziynatlaydi. Albatta, har bir harfning umumiy yo'sindagi, risoladagidek yozilish qoidalariga amal qilishi shart. Xattot shu tarzda kitobxonning estetik zavqini oshiradi, go'zallikka oshno qiladi. Shunig uchun ham tibbiyot olamining darg'asi Abu Ali ibn Sino «Nafis va go'zal yozuv ko'zni munavvar qiladi va qalbni quvontiradi», – deb bejiz yozmagan.

Xattotlarning xat mashqlari ularning qo'lini ham, aqlini ham charxlagan. Alifbo hatrflariga o'zgacha nazar bilan qarab ularga ijodiy yondashgan. Qilqalam xattotlar qalam, qog'oz va siyohdan iborat uch birlikni qo'l izmiga bo'ysundirib go'zal bitiklarni yarata olgan. Buning uchun ular albatta, xat turlari va uslublarini hamda qalamni xat turiga monand tarzda yo'nadi, tayyorlaydi. Ustozlar yo'lidan borib xatga o'z mehrini berib kelayotgan xattotlar ilhombaxsh va ijodkorlik ruhi bilan yondoshish asnosida innovatsion uslublarni qo'llab innovator xattot sifatida yangilik kiritibgina qolmay, balki yangi xat turlarini ham yaratishgan. Bu tendensiya hozirda ham davom etayotgani quvonarlidir. Yaqinda o'tkazilgan xattotlar festivalida 100dan ziyod xattotlar qatnashib o'zlarining xat namunalari namoyish etishdi. Ularning ichida 10dan ziyod innovator xattotlar borligi ham ma'lum bo'ldi. Demak, yildan yilga xattotlar soni va sifatining ko'payib borishiga kafolat bor.

Kishilik jamiyati tarixida ikkita kashfiyotning alohida o'rni bor. Biri nonning kashf etilishi bo'lsa, ikkinchisi yozuvdir. Ushbu har ikkala moddiy va ma'naviy ixtiro insoniyat tarixining boqiyiligiga asos bo'lgan.

Xalqimiz uzoq o'tmishi davomida turli xil yozuvlarni istifoda etib kelganidan voqifsiz. Qadimiy uyg'ur, o'rxun-enasoy, so'g'd va hokazo. VII asr oxiridan Qur'on yozuvi ilm-u fan, san'at va davlat ishlarida rasmiy yozuvga aylana borgan. Oqibatda turli zamon va makonlarda o'ziga xos yozuv mashqi va usullarini shakllantirgan xattotlik maktablari vujudga kelgan.

Xattotlik asta-asta tasviriy san'at, musavvirlik, naqqoshlik, o'ymakorlik bilan ham uyg'unlashib borgan. Natijada arab yozuvi asosida, uning bejirim harflari zamirida nafis bir san'at yaralgan. Kalligrafiya boshqa xalq yozuvlarida ham bo'lgani kabi arab yozuvi singari keng tarmoqlanmagan.

Chunki, arab yozuvida uning boshqa xalqlar alifbolari singari ijimoiy vosita quroli ekanligidan tashqari qator funksiyalari borki, bu uning tobora ommalashgani hamda 1300 yildan ziyod muddat mobaynida xalqimizning istifoda etib kelgani bejiz emasligidan dalolatdir.

Arab alifbosi teran tafakkur, mantiqiy mushohada, yuksak did va nafosatni talab etishi bilan birgalikda u quvvai hofizani taqozo etuvchi xotira, topishmoq yozuvi hamdir. To'g'ri o'ylab fikr yurita olmasangiz, biron matn tugul, biron so'zni ham to'g'ri o'qiy olmasiz. Unda naqsh, riyoziyot, ya'ni matematika (abjad hisobi), badiiy-tasviriy vositalar (harfiy va lafziy san'atlar), rasm barchasi mujassam.

Shuning uchun ham uning ruhiy va aqliy ta'siri, hissiyotlaringizni junbushga keltirish, go'zallikka oshno etish jihati e'tiborni tortmasdan qolmaydi.

Oldin Turkiyada keyin Arabistonda tahsil olib xattotlik san'atini yuqori nuqtalarga ko'tarilishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan taniqli ayol xattotlardan biri Surayyo Said o'z suhbatida shunday deydi. «*Birinchi xayolimga kelgani – san'at yarmarkasi bo'layotgandi, bir musulmon bo'lmagan odam oldimga keldi-da, «bu narsalarga qarab, men o'zimni xuddi avval namoz o'qigandek his qildim», – deb aytdi. Tashqi tomondan bo'lgan ta'sirni, u odamdan qanday kechinmalar o'tganini har doim ham so'z bilan ifodalab berolmasiz, ammo nimadir bo'lgani aniq.»*

Buxoro miniatyura maktabi m.ning yirik vakillari:

Muhammad Sharif — samarqandlik me'mor, gumbaz barpo etish bo'yicha mutaxassis. Toj mahal maqbarasini qurishda ishtirok etgan.

Muhammad Muqim yoki Xoja Muqim, 17-asr — musavvir. Ashtarxoniylardan Abdul'azizxon va Subxonqulixon kutubxonasida ijod qilgan. M.M. kishilar tasviriga alohida ahamiyat beradi, tasvirlar nafis ishlanishi, qiyofalar ifodaliligi, kompozitsiyalar mutanosibliigi, kam shaklliligi hamda shakllar yirikligi bilan diqqatga sazovor. Xoja Gado, Avaz Muhammad, Mulla Behzod kabi musavvirilar va Mirzo Barqiy, Mulla Mir Munshiy, Ibn Arabshoh kabi xattotlar bilan birga ishlab, Nizomiyning „Hamsa“ (1669, Dublindagi Chester Bitti kutubxonasida), Firdavsiyning „Shohnoma“ (1664, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida, asarlarini badiiy bezagan. Shuningdek, Firdavsiyning „Shohnoma“, „Narimonnoma“, „Bayonnoma“, „Faramuznoma“ qo'lyozmalar majmuasiga (1670, O. Oleber majmuasida) rasmlar ishlashda qatnashgan. Muhammad Muqim. „Siyovushni o'tda sinash“ (Firdavsiyning „Shohnoma“ asariga ishlangan, 1664, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institute. Farhod — Samarkand viloyatidagi shaharcha. Zarafshon daryosining o'ng sohilida joylashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murodov A., O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan, T., 1971.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Letter Arts Review; Propfe 2005; Geddes and Dion 2004 jurnalining asl nusxasi)